



THE ROLE OF SPIRITUALITY IN DEEPENING DEMOCRATIC REFORMS IN NEW UZBEKISTAN

Djubakhan Nawirzovich Sagindikov

Associate Professor

Karakalpak State University

Karakalpakstan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: reforms, ideology of New Uzbekistan, democratic reform, high spirituality, enlightened person, sense of homeland.

Abstract: This article explains how important the role of spirituality is in deepening the democratic reforms of the new Uzbekistan, which is facing the world with its intensive development.

Received: 10.09.24

Accepted: 12.09.24

Published: 14.09.24

YANGI O‘ZBEKISTONDA DEMOKRATIK ISLOHATLARNI CHUQURLASHTIRISHDA MA’NAVIYATNING ROLI

DJubatxan Nawirzovich Sagindikov

Dotsent

Qoraqalpoq davlat universiteti

Qoraqalpog‘iston, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: islohotlar, Yangi O‘zbekistonning mafkurasi, demokratik islohot, yuksak ma’naviyat, ma’rifatli inson, vatan tuyg‘usi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada jahon hamjamiyatiga intensiv taraqqiyoti bilan dunyoga yuz tutayotgan yangi O‘zbekistonning demokratik islohotlarini chuqurlashtirishda ma’naviyatning roli qay darajada muhim ekanligi tushuntirilgan

РОЛЬ ДУХОВНОСТИ В УГЛУБЛЕНИИ ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ РЕФОРМ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Джубахан Навирзович Сагиндиқов

Доцент

Қарақалпақский государственный университет

Қарақалпақстан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: идеология Нового демократические духовность, чувство Родины.	слова: реформы, Узбекистана, высокая просвещенный человек,	Аннотация: В данной статье объясняется, насколько важна роль духовности в углублении демократических реформ нового Узбекистана, предстоящего миру своим интенсивным развитием.
---	---	---

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda «Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari» degan hayotbaxsh g'oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ma'naviyat masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan 2021 yil 19 yanvardagi videosektor yig'ilishda quyidagilarni bayon etdilar: «Afsuski, hali oramizda milliy g'oyaning, ma'naviyatning mohiyatini to'liq anglab yetmaganlar, ma'naviyat kerakmi-yo'qmi deb yurganlar ham yo'q emas.

Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy sohalarida mavjud bo'lgan muammolarni ma'naviyatni rivojlantirish, unga tayanish orqali hal etish mumkin. Ma'naviyat millatni taraqqiyotga yetaklovchi, davlatning qudratini oshiruvchi muhim omil sanaladi. Chunki qayerda, qaysi mamlakatda ma'naviyat yuksak darajada bo'lsa, o'sha joyda, o'sha mamlakatda johillik, hasadgo'ylik, beparvolik, xudbinlik, yalqovlik, manmanlik, tekinoxorlik, g'iybat, ko'rolmaslik, yovuzlik, qo'poruvchilik, o'z vatani va xalqiga nisbatan sotqinlik, tuhmat qilish kabi salbiy illatlar, ma'naviyatsizlik ko'rinishlariga o'rin qolmaydi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda «Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari» degan hayotbaxsh g'oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng erkin fikrlaydigan, o'z-o'zini anglaydigan, jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib yetadigan, har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalash vazifasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi qilib belgilandi. Uni amalga oshirish esa, eng avvalo, tarbiyalanuvchilarning ichki ruhiy ma'naviyatini boyitish va mustaqil dunyoqarashini shakllantirishni taqozo etadi. Har qaysi davlat, har qaysi xalq intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir.

2020 yil 27 fevral kuni Oliy Majlis palatalari Kengashlarining qo'shma qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarning 2030 yilgacha bo'lgan davrda amalga oshirilishini nazorat qilish bo'yicha Parlament komissiyasi tuzildi va uning reglamenti tasdiqlandi.

ASOSIY QISM

Parlament komissiyasi Barqaror rivojlanish maqsadlari sohasidagi milliy maqsad va vazifalarning 2030 yilgacha bo‘lgan davrda amalga oshirilishini nazorat qilish, muntazam ravishda parlament va jamoatchilik muhokamalarini o‘tkazish, hukumat huzurida tashkil etilgan tegishli Muvofiqlashtiruvchi kengash va mas’ul tuzilmalarning davriy hisobotlarini eshitish, ushbu maqsadlarning amalga oshirilishi ustidan milliy hamda hududiy darajada o‘rganishlar olib borish, o‘rganishlar natijalaridan kelib chiqib, qonunchilikni yanada takomillashtirish, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish bo‘yicha tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqish masalalari bilan shug‘ullanadi.

2020 yil davomida Komissiya tomonidan 17ta Barqaror rivojlanish maqsadlaridan 8tasining amalga oshirilishini o‘rganish nazarda tutilmoqda. Bunda 6600 dan ortiq mahalliy Kengashlar deputatlarining salohiyatidan foydalaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida O‘zbekistonning xorijiy davlatlardagi elchilari hisobotini eshitish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. 2020 yilning 12 mart kuni O‘zbekistonning Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Latviya, Polsha, Turkiya, Fransiya, Gretsiyadagi elchilarining hisobotlari eshitildi.

Oliy Majlis Senatining mahalliy Kengashlar bilan hamkorligini yana-da kuchaytirish maqsadida Senatda doimiy asosda ishlovchi senatorlar hududlardagi mahalliy Kengashlarga mas’ul etib birlashtirilib, mahalliy Kengashlarda “senatorlar xonalari” tashkil etildi.

Senatning Davlat byudjetini shakllantirish va ijro etish jarayonlari ustidan hududlar manfaatidan kelib chiqqan holda nazorat olib borish faoliyatini kuchaytirish, davlat byudjeti, iqtisodiyot, pul-kredit siyosati masalalarida senatorlarga professional va xolis axborot-tahliliy, ekspertlik xizmatini tashkil etish maqsadida Senat Kengashining 2020 yil 9 martdagi KQ-19–IV-sonli qaroriga muvofiq Senat devoni tarkibida Davlat byudjeti, pul-kredit siyosati va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini tahlil qilish boshqarmasi tashkil qilindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarning faolligini oshirish maqsadida O‘zLiDeP, O‘zMTDP, “Adolat” SDP, O‘zXDP va Ekologik partiya fraksiyalarining saylovoldi uchrashuvlarda aholi tomonidan ko‘tarilgan dolzarb masalalarni hal etish bo‘yicha aniq dastur va “yo‘l xarita”lari ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Yoshlarning qonun ijodkorligi jarayonidagi ishtirokini yana-da kengaytirish maqsadida Oliy Majlis Qonunchilik palatasida “Yoshlar parlamenti” tuzildi hamda 29 iyun kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi o‘rtasida «Yoshlar parlamenti» faoliyatiga ko‘maklashish to‘g‘risidagi hamkorlik Bitimi imzolandi.

Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning huquqiy ongi va savodxonligini oshirish, jamiyatda yoshlarni siyosiy faol qatlamga aylantirish hamda ularning siyosiy-huquqiy bilim va

ko'nikmalarini amalda boyitish, qonunchilik va qonun ijodkorligi jarayoniga yoshlarni jalb qilish va qabul qilinayotgan qonunlarni yoshlar orasida keng targ'ib qilish orqali ularning parlament hayotiga daxldorligini oshirish "Yoshlar parlamenti"ning maqsadi etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, bilimli odam — e'tiqodli bo'ladi. Ma'naviyat vakinasini har bir millatning o'zi yaratadi. Bugungi ma'naviy qashshoqlik — adolatli haqiqatdir.

Haqiqatan ham, iqtisodiyot va ma'naviyat uyg'unligiga erishmog'imiz shart. Hozirgi kunda iqtisodiy kambag'allikni tugatish choralari ko'ryapmiz, lekin ma'naviy qashshoqlikka barham berish borasidagi natijalarimiz bilan hali maqtana olmaymiz.

Odatda paxta dalasidagi g'ozalar yo bog'dagi mevalarga qurt yoki g'allaga zang tushsa, unga qarshi kurashishga darrov otlanamiz. Biroq milliy ma'naviyatga ziyon yetkazadigan "qurt"larga nisbatan negadir ko'pincha beparvomiz.

Bu borada, bir tomondan, ilm-fanga tayangan holda, ikkinchi tomondan, "Gap — kam, ish — ko'p" degan aqidaga amal qilgan holda ish olib borishimiz kerak. Ya'ni iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotning uzviyligiga erishish lozim. Ma'naviyat hur va erkin bo'lishini ta'minlashimiz darkor

Buning uchun, avvalo, so'z va ijod erkinligi omili ulkan ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, o'zbek va jahon adabiyoti sara namunalarini muntazam o'qib-o'rganish, kitobxonlik va mutolaa madaniyati ko'magida milliy ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirish nihoyatda muhim.

XULOSA

Shuning uchun mamlakatimizda milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, jamiyatda adabiyot va kitobxonlikni yanada rivojlantirish maqsadida "Ijod" jamoat fondi negizida Ma'naviyat va ijodni qo'llab quvvatlash fondi tashkil etilayotgani e'tiborga sazovor.

"Savol tug'iladi: mana, iqtisodiy kambag'allikni qisqartirish bo'yicha katta ishlarni boshladik. Lekin ma'naviy qashshoqlikni qanday qisqartiramiz? Fikr qaramligidan qanday qutulamiz? Islohotlarimiz uchun zarur bo'lgan mablag' va investitsiyalarni qiyinchilik bilan bo'lsa ham topyapmiz, ammo ma'naviy immunitetni mustahkamlash uchun ruhiy resursni qayerdan topamiz". Prezidentimiz xuddi shu savollarni kun tartibiga qo'ydi. Yanada muhimi, davlatimiz rahbarining bu boradagi fikrlarida ma'naviyatning o'ziga xos indikatorlari, ya'ni ma'naviyat darajasini belgilash mezonlari qanday bo'lishiga doir chuqur tushunchalar o'z aksini topdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. —Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonuni. — Toshkent: Adolat, 2016.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 26 mart 2021 yilgi PQ-5040- sonli Qarori. [//https://lex.uz/docs/5344692](https://lex.uz/docs/5344692).

4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz -T «O‘zbekiston», NMIU, — 2017.

5. Otamurotov S., Abduraxmonov M., Xusanov S. Ma’naviyat asoslari. Darslik. – Toshkent, 2009

6. Erkayev A. “Ma’naviyatshunoslik”. I-jild. Ma’naviyat ontologiyasi va fenomenologiyasi Monografiya. — Tohskent: Ma’naviyat, 2018.